QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 19-iyul | 203-4-58-Q/25 | Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumani O‘zbekiston mahallasi O‘zbekiston ko‘chasida joylashgan bolalar istirohat bog‘i oldiga fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga, “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning 4-, 16-moddalariga, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 19-yanvardagi “Yo'l harakati to'g'risida”gi 900-sonli Qonunining 6-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan, tuman hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida, tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2025-yil 17-iyundagi 319-sonli aloqa xatini ko'rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qamashi tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2025-yil 17-iyundagi 319-sonli aloqa xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumani O‘zbekiston mahallasi O‘zbekiston ko‘chasida joylashgan bolalar istirohat bog‘i oldiga fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Qamashi tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (N.Rahimov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i (X.Xayrullayev) tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (Sh.Ismatullayev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (Sh.Almardonov)lar hamkorlikda O‘zbekiston mahallasi O‘zbekiston ko‘chasida joylashgan bolalar istirohat bog‘i oldiga fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini

oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (N.Rasulov) ushbu qarorni tuman hokimligining rasmiy veb saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishi tavsiy etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.Haydarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Usmonov**

Qamashi tumani hokimining
2025-yil 19-iyuldagi
203-4-58-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi	Yo‘l belgisini soni
1.	O‘zbekiston mahallasi O‘zbekiston ko‘chasida joylashgan bolalar istirohat bog‘i oldi	3.27 “To‘xtash taqiqlangan”	2 dona